



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloyevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	

CHUST VA SAMARQANDDA EKOTURIZM RIVOJLANISHIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

Allanov Shuxrat Qilichovich

Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada milliy hunarmandchilik rivojlangan joyda, albatta, uning tarixiy ekoturizm bozorlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chust bozori xuddi shunday sharqona xususiyatlarni saqlab qolgan bozorlardan biri. Bozorda behisob hunarmand kosiblar, tikuvchilar, dehqonlar, davlat va shirkatlar buyumlarini sotuvchilar minglab xilma-xil buyumlarni oldi-sotdi qiladilar. Bunday bozorlarda topilmaydigan buyumning o'zi yo'q. Ayniqsa, bu bozorga Chust do'ppisi-yu, Chust pichoq'ini xarid qilish uchun turli joylardan, hattoki xorijdan xaridorlar keladilar. Pichoq haqida so'z yuritar ekanmiz, beix-tiyor: "Pichoq – bu yarim rizq" degan xalqimizning hikmatli iborasi yodga keladi. Buning tagida purma'no ko'p. Agar tarixga nazar tashlasak, avvallari xalqimizning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lganligi, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganliklarini ko'rishimiz mumkin. Chorvador xalq uchun pichoqning bo'lishi bebaho. Chunki u yoki bu sababga ko'ra, so'yilishi kerak bo'lgan hayvonni halolash uchun pichoq chorvadorning ajralmas ish quroli. Shu bois erkaklar doimo o'z yonida pichoq olib yurganlar. Pichoqqa talab katta va uni olib yurish rasm bo'lgan. Bu qoidaga qat'iy amal qilingan.

Kalit so'zlar: xususiyashtirish, xususiyat, bozor, shirkat, pichoq, do'ppi, naqqosh, kashtado'z, zargarlik, shoyi, atlas, tosh-taroshlik, ko'pchilik, mahsido'zlik, egarchilik.

Abstract: The article notes that in places where national crafts are developed, historical ecotourism markets also have their own unique features. The Chust market is one of the markets that has retained its distinctive oriental character. Thousands of artisans, tailors, farmers, and vendors from government and private enterprises sell a wide variety of goods in the market. There is virtually no product that cannot be found in such markets. In particular, buyers from different regions, and even from abroad, come to this market to purchase Chust knives. When we talk about a knife, a wise saying of our people involuntarily comes to mind: "A knife is half of one's livelihood." There is a profound meaning behind this expression. If we look at history, we will see that our people were once nomadic and semi-nomadic, mainly engaged in cattle breeding. Having a knife was invaluable for people involved in cattle breeding. After all, for one reason or another, a knife was an indispensable tool for slaughtering livestock. That is why men always carried knives with them. The knife was in great demand, and carrying it was a common custom. This rule was strictly observed.

Key words: privatization, feature, market, company, knife, skullcap, painter, embroiderer, jewelry, silk, satin, stone carving, majority, makhsi-making, saddlery.

Аннотация: В статье рассматривается развитие национальных ремёсел в местах, где, безусловно, исторические рынки экотуризма также имеют свои особенности. Чустский рынок - один из рынков, сохранивших свои восточные черты. Бесчисленные ремесленники, портные, крестьяне, продавцы государственных и коммерческих товаров покупают и продают на рынке тысячи различных товаров. Нет ни одного предмета, который нельзя было бы найти на таких рынках. В частности, покупатели из разных мест, даже из-за рубежа, приезжают на этот рынок, чтобы купить чустские тюбетейки и чустские ножи. Когда мы говорим о ножах, мы невольно вспоминаем мудрую поговорку нашего народа: "Нож - половина средства к существованию". За этим стоит глубокий смысл. Если мы обратимся к истории, то увидим, что наш народ изначально был кочевым и полукочевым и в основном занимался скотоводством. Наличие ножа было бесценным для скотоводов. Потому что по той или иной причине нож являлся незаменимым инструментом скотовода для забоя животного, которое необходимо было забить. Вот почему мужчины всегда носили с собой нож. Спрос на нож был высоким, и ношение его было обычаем. Это правило строго соблюдалось.

Ключевые слова: приватизация, специфика, рынок, компания, нож, тюбетейка, роспись, вышивка, ювелирное дело, шёлк, атлас, камнерезное дело, большинство, изготовление махси, седельное дело.



KIRISH

Bugungi kunda milliy hunarmandchilikni asrab-avaylash, uni zamonaviy iqtisodiyot va turizm bilan uyg'un holda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tarixiy shaharlar va ularda shakllangan hunarmandchilik maktablari mamlakatning madaniy merosini saqlash, aholi bandligini ta'minlash hamda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Chust pichoqchiligi, do'ppido'zligi va boshqa an'anaviy hunarmandchilik turlari nafaqat milliy qadriyat, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Biroq ushbu sohani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, hunarmandlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq masalalar ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Shu sababli mazkur mavzu dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti sifatida Chust shahri va unga xos milliy hunarmandchilik an'analari, xususan, pichoqchilik, do'ppido'zlik hamda ular bilan bog'liq tarixiy savdo bozorlari faoliyati tanlandi.

Tadqiqot predmeti Chust hunarmandchiligining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, milliy hunarmandchilik mahsulotlarining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati hamda ularni rivojlantirish omillaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi Chust milliy hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, uning milliy madaniyat, turizm va hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Chust hunarmandchiligining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
2. Chust pichoqchiligi va boshqa milliy hunarmandchilik turlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
3. Hunarmandchilikning tarixiy bozorlar va ekoturizm rivojidadagi o'rnini baholash;
4. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
5. Soha rivojini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, Chust o'z tamg'asi bilan 20 dan ortiq pichoq turlari mavjud bo'lib, u o'zining bejirimligi, betakrorligi, rang-barangligi va keskirliги bilan boshqa pichoqlardan ajralib turadi. Shu bois Farg'ona vodiysida har bir xorijlik sayyoh Chust shahrida bo'lar ekan, albatta, Chustning bu bebaho milliy pichog'idan sovg'a sifatida olib qaytadi.

Biroq muammo shundaki, bunday serqirra kasb egalari, xususan, faqatgina Chust shahriga xos bo'lgan ixtisoslashgan mehnat resursi -hunarmandlar yetarli bo'lishiga qaramay, ana shu milliy g'ururimiz, Sharq mash'ali bo'lgan Chustning bu noyob durdonalarini yaratish uchun ko'plab ishlab chiqarish imkoniyati mavjud emas. Har oyda atigi 30–50 ming dona milliy sovg'a (suvenir) pichoqlari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud, xolos.

Mustaqillik yillarida Chust shahrida ham iqtisodiy islohotlar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yurtimizda sanoat, xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy o'zgarishlarni izchillik bilan amalga oshirish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligida fermerlik, xalq xo'jaligi sohalarida xususiyashtirish, tadbirkorlik muhim rol o'ynay boshlagan. 1991-yildan beri o'tgan qisqa vaqt mobaynida badiiy buyumlar fabrikasi, paxta zavodi, qandolatchilik fabrikasi, tikuvchilik fabrikasi, pichoq zavodi kabi korxonalar hissadorlik jamiyatiga aylantirildi (biroq Chustdagi mehnat resurslariga nisbatan bu korxonalar aholining mehnat bilan bandlik ehtiyojini qondira olmaydi).

Hunarmandchilik rivojlangan joyda, albatta, uning tarixiy ekoturizm bozorlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chust bozori ham xuddi shunday sharqona xususiyatlarni saqlab qolgan bozorlardan biri. Bozorda behisob hunarmand kosiblar, tikuvchilar, dehqonlar, davlat va shirkatlar buyumlarini sotuvchilar minglab xilma-xil buyumlarni oldi-sotdi qiladilar. Bunday bozorlarda topilmaydigan buyumning o'zi yo'q. Ayniqsa, bu bozorga Chust do'ppisi-yu, Chust pichog'ini xarid qilish uchun turli joylardan, hattoki xorijdan xaridorlar keladilar. Pichoq haqida so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor "Pichoq - bu yarim rizq" degan xalqimizning hikmatli iborasi yodga keladi. Buning tagida purma'no ko'p.

Agar tarixga nazar tashlasak, avvallari xalqimizning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lganligi, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganliklarini ko'rishimiz mumkin. Chorvador xalq uchun esa pichoqning bo'lishi bebaho. Chunki u yoki bu sababga ko'ra, so'yilishi kerak bo'lgan hayvonni halollash uchun pichoq chorvadorning ajralmas ish quroli. Shu bois erkaklar doimo o'z yonida pichoq olib yurganlar. Pichoqqa talab katta va uni olib yurish rasm bo'lgan. Bu qoidaga qat'iy amal qilingan.



Shu o'rinda o'zbeklarning pichoq osib yurishlarini noto'g'ri talqin qiluvchilarga, ya'ni o'zbeklar pichoqni yovuz qurol sifatida taqib yuradilar, deb atashlari noto'g'ri. To'g'ri, yovuz qurol sifatida ishlatiladigan pichoq - xanjarlar bo'lgan, lekin ularda gulband yo'q va u shariatda harom. Bunday pichoq-xanjarlar janglarda, to'qnashuvlarda ishlatilgan va ular, asosan, boshqa xalqlardagi kabi lashkar yoki navkarlarda bo'lgan.

Pichoq - bu milliy g'urur hisoblanib, u oshxona va dasturxonning bezagi, ro'zg'orning eng zarur vositasi. Pichoq tayyorlash jarayoni ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, u tayyor pichoq bo'lgunga qadar 76 marta qo'ldan qo'lga o'tadi. Shunday mehnat evaziga yasalgan dandon sopolli, mis yoki kumush gulbandli pichoqlar o'zining ko'rinishiga alohida ko'rk baxsh etadi.

Chust do'ppisi o'zining nusxasi bilan boshqa do'ppilardan ajralib turadi. U go'zalligi, bejirimligi va sifati bilan mashhur. Chust do'ppisi, to'ni, chorsisi va kashtalari-chi? Bular to'g'risida qancha yozsang, shuncha oz. Chust bozoridan chiqib, shahar aylansangiz, uning o'ziga xos yana bir xususiyatlaridan bahramand bo'lasiz. U ham bo'lsa, shahar milliy hunarmandchiligining xilma-xilligi. Chust azaldan hunarmandchilik sohasida mashhur bo'lgan va u yerda zargar, misgar, temirchi, tunukasoz, chilangar, kosib, duradgor, naqqosh, kashtado'z, tikuvchi, to'quvchi, pichoqchi kabi hunarmandlar, ustalar son-sanoqsiz bo'lishgan.

Shahar xonadonlariga tashrif buyurgan har bir xorijlik sayyoh har ikki xonadonning birida do'ppi, to'n, chorsi, har xil kashtalar tikayotgan oilalarni, eshik va pichoq yasayotgan, yog'ochga naqsh berayotgan ustalarni ko'radi va ular yaratayotgan buyumlardan dili yayraydi, quvonadi. Bunday hunarmandlarning aksariyati yakka yoki oilaviy mehnat qiladilar. Qolgan qismi esa shaharda mehnat jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar. Bu jamoalarda milliy pichoqning ko'plab nusxasi, kashtachilikning so'zana, shohi so'zana, palang, alpak nusxalari, qandolatchilikning novvot, pashmak, rohat-luqum, holva kabi turlarini ko'plab tayyorlab, iste'molga chiqaradilar. Ular tayyorlagan mahsulotlarning ba'zi birlari hatto xorijiy mamlakatlarda ham xaridorlar topmoqdalar.

Savdo-sotiq. Osiyoda tarixiy davrlarda ham ichki va tashqi savdo rivojlanishiga ko'ra umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Shuningdek, tashqi savdoda Buyuk ipak yo'li muhim ahamiyat kasb etgan. Savdo mahsulotining asosiy qismini milliy hunarmandchilik buyumlari tashkil etgan. Shahar savdosida bozorlar alohida o'rin tutgan. O'rta Osiyo va Eron bozorlari rastalarga bo'lingan. Har bir rasta qaysidir mahsulotni sotishga ixtisoslashtirilgan. Bunda Osiyo davlatlarining shaharlari feodallarga qarashli yerlarda bunyod etilgan. Buni ularning o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurashidan ham bilib olish mumkin. Osiyoda shaharlar Yevropadagi kabi alohida mustaqil shahar va davlatlarga aylanmagan. Har bir shaharda o'ziga xos ixtisoslashtirilgan hunarmandchilik rivojlangan. Bunda qabilalar, oilaviy hunarmandlar shakllangan.

XI–XV asrlarda Xitoyning Chan An, Lou An, Xanjou; Yaqin Sharqning Qohira, Damashq va Bag'dod; O'rta Osiyoning Samarqand va Buxoro; Yaponiyaning Kamakura, Kioto va Osaka; Hindistonning Dehli kabi shaharlari Osiyoning yirik hunarmandchilik shaharlaridan bo'lgan.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Samarqand shahri ham har tomonlama yuksalgan. U Sohibqiron Amir Temur davlatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'lgan.

Samarqand o'zining go'zalligi tufayli "Sayqali ro'yi zamin", ya'ni "Dunyoning husni" deb ta'riflangan. Buxoro esa mashhur milliy hunarmandchilik markazi sifatida ulug'langan (zardo'zlik, naqshinkorlik). Shuningdek, musulmon mamlakatlarida shaharlar o'ziga xos usulda bunyod etilgan. Buxoro shahrining markazida Ark qal'a, ya'ni hukmdorning qarorgohi, uning yonida Shahriston - shaharning asosiy qismi joylashgan. Shahar tevaragida hunarmandlarning mahallalari bo'lib, ular rabot deb atalgan. Shaharlar tosh va g'ishtdan qurilgan. Buning asosiy sababi yog'ochning yetishmasligi bo'lgan.

Xalq amaliy san'ati qadimiy tarixga ega. Ota-bobolarimiz zargarlik, zardo'zlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, gilam to'qish va to'qimachilik hunarlarida katta mahorat ko'rsatganlar.

Darhaqiqat, Samarqand zargarlari va misgarlari nafis buyumlari, shoyi va atlas, shuningdek, sifatli qog'oz bilan ham Sharqdagi barcha mamlakatlarda mashhur bo'lganlar.

Samarqandning qo'li gul zargarlari tayyorlagan bu zebu-ziynat buyumlari, taqinchoqlar ko'pchilikka ma'lum va manzur bo'lgan. O'sha davr Samarqand kulollari chin ma'noda yetuk san'atkor ustalar bo'lib, ular yasagan sopol idishlar nihoyatda nozikligi va yengilligi, gullarining chiroyli qilib ishlanganligi bilan diqqatga sazovor bo'lgan. Idishlar turli-tuman naqshli bezaklar, barg va novdachalar, ba'zan esa hayvon, qush va baliq suratlari bilan qoplangan bo'lib, afsonaviy bir shaklga ega bo'lgan.

Samarqand kulollarining yasagan buyumlari o'zining jimjimadorligi, rangining tozaligi va bo'yoqlarining tiniqligi, shaklining bejirim va pishiqligi bilan butun olamga ma'lum va mashhur bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur davrida to'qilgan serjilo patli gilamlar, paloslar o'zining pishiqligi, rang-barangligi, tusi va ziynati bilan Eron va Kichik Osiyo gilamlaridan ancha ustun turgan va atrof-joylarga chiqarilib sotilgan.

Samarqand boyligi oziq-ovqatlarning mo'l va arzonligidagina emas, balki bu yerda to'qiladigan atlas, kimxob, sandal va tersapoya singari shoyi gazlamalar, mo'yna va shohidan tayyorlangan astarliklar, upa-elik, zarhal, ko'k lojuvard bo'yoqlar va boshqa narsalarning mo'l-ko'lligidan ham.



Toshtaroshlik hunari ustalari haqida I. Bobonazarovning fikriga ko'ra, "Marmar asrlar osha O'rta Osiyoda faqat qurilish materiali sifatida emas, balki san'at asarlari, uy-ro'zg'or buyumlarini yasashda ham xom ashyo hisoblangan. Biroq marmarga go'zallik ato etgan kishilar haqida ma'lumotlar juda kam. O'rta Osiyoda faqat G'ozg'on qishlog'ida "inqilob"ga qadar va undan keyin ham toshtaroshlar bo'lishgan. "Inqilob"ga qadar H. Yo'ldoshev, N. Soliyev, Ustapo'lat, Usta Toshpo'lat, Safar Tovoqcha, Usta To'laboy va boshqalar marmardan turli buyumlar yasashgan. Inqilobdan keyingi davr ustalaridan A. Turdiyev, Mulla Baqo Kamolov, B. Jabborov, A. Hayitov, T. Komilov, M. Bobonazarov, T. Esonov, T. Ahmedov, M. Ro'ziyevlar."

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida bezakli badiiy buyumlar hunarmandchiligi yuqori darajaga ko'tarilgan. Uning rivojlanishi me'morchilik, rassomlik, naqqoshlik, maishiy buyumlar ishlash bilan o'zaro bog'lanish yo'lidan borgan. Har xil san'atkorlarning bunday bir-biriga bog'lanishi yog'och va toshga o'yib naqsh solishida ham, metall va sopol idishlarning eng yaxshi namunalari ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida Samarqandda ulkan binolar, bog'-rog'lar barpo etish, ariq-kanallar qazdirish bilan birga shahar hunarmandlari ishlab chiqaradigan mahsulotlar ko'rgazmasini ham tashkil etgan. Bu milliy hunarmandchilikning shuhratini yanada ko'targan. Bunday ko'rgazmalar keng Kongil maydonida tantanali sur'atda ochilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur Kongilda 400 tagacha savdo paviloni qurdirgan. Pavilonlar mohir hunarmandlar, rassomlar tomonidan yuksak did bilan bezatilgan, tantanali sayil kunlarida pavilon atrofiga ko'plab, ayrim paytlarda 20 mingtagacha go'zal chodirlar qurilib, shahardagi hunarmandlar mana shu yerga keltirilib joylashtirilgan.

Osiyoda Uyg'onish davri IX asrdan boshlangan bo'lsa-da, O'rta asrlarda Yevropadagi Uyg'onish davrida O'rta Osiyoda milliy hunarmandchilik, madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan. Sohibqiron Amir Temur saltanatining Buxoro, Samarqand, Andijon, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlari milliy hunarmandchilik va savdo markaziga aylantirilgan. Shaharlarda milliy hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi guzarlar, bozor rastalari vujudga kelgan. Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlarida misgarlik, zargarlik, kulolchilik, toshtaroshlik, ko'ncilik, mahsido'zlik, tandirsozlik, egarchilik, pichoqchilik, o'qchilik kabi hunarmandchilik mahallalari vujudga kelgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, tizimli yondashuv va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Chust hunarmandchiligi, xususan, pichoqchilik, do'ppido'zlik va boshqa milliy hunarmandchilik turlariga oid ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali Chust hunarmandchiligining tarixiy rivojlanish bosqichlari boshqa hududlardagi hunarmandchilik markazlari bilan taqqoslandi. Tahliliy metod yordamida milliy hunarmandchilikning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, uning turizmi rivojlantirishdagi o'rni hamda mavjud muammolari baholandi.

Shuningdek, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida olingan ilmiy ma'lumotlar bir butun tizimga keltirilib, xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Chust qadimdan milliy hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida shakllanib, ayniqsa, pichoqchilik, do'ppido'zlik, kashtachilik, zargarlik va yog'och o'ymakorligi kabi yo'nalishlarda o'ziga xos maktab yaratgan. Chust pichog'i o'zining sifati, bejirimligi va betakror bezaklari bilan nafaqat respublikamizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham mashhurlikka erishgan.

Tadqiqot natijalari hunarmandchilikning hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va turizm salohiyatini oshirishdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Chust bozorining tarixiy qiyofasini saqlab qolishi xorijiy sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, milliy pichoq va do'ppilar hududning o'ziga xos brend mahsulotlariga aylangan.

Shu bilan birga, tahlil davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Jumladan, milliy pichoqlarga bo'lgan talab yuqori bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarish quvvatlari cheklanganligi sababli mavjud ehtiyoj to'liq qondirilmayapti. Hunarmandlarning aksariyati yakka tartibda yoki oilaviy ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgani ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Bundan tashqari, hunarmandchilik mahsulotlarini zamonaviy marketing vositalari orqali xalqaro bozorlarga chiqarish, elektron savdo platformalaridan samarali foydalanish hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarur.

Tahlil natijalariga ko'ra, Chust hunarmandchiligining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun hunarmandlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish, yosh avlodni ustoz-shogird an'analari asosida kasbga o'rgatish, milliy hunarmandchilikni turizm yo'nalishlari bilan integratsiyalash hamda mahsulotlarni xalqaro bozorlarda faol targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Sohibqiron Amir Temur har yili Kongil maydonida hunarmandlar tayyorlagan turli-tuman, nafisligi va pishiqiligi bilan bir-biridan ajralib turadigan buyumlar, san'at asarlari ko'rgazmasini tashkil etgan va shu sohani sinchiklab o'rgangan. Har yilning o'ziga xos milliy hunarmandchilik buyumlari sifati va soniga qarab milliy hunarmandchilik sohasining qay darajada rivojlanayotganligini kuzatgan, qaysi soha oqsayotganligini, ya'ni sifati past mahsulot tayyorlanayotganligini aniqlagan hamda qaysilarini rivojlantirishga e'tibor berish zarurligini rejalashtirgan. Sohibqiron Amir Temur nazarida bu ko'rgazmalar Samarqandda hunarmand ahlining o'sha davr milliy hunarmandchiligi va san'atida erishgan yutuqlarining o'ziga xos bir ko'rigi bo'lganligini anglatgan.

Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida Movarounnahrning Buxoro, Samarqand, Andijon, Toshkent, Qarshi shaharlari yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylanib, kun sayin rivojlanib borgan. Ma'lumki, Buyuk ipak yo'li o'tgan hududlar O'rta asrlardan keyingi davrlarda suronli urushlar davrini boshidan kechirishga qaramay, milliy hunarmandchilik, amaliy san'at va madaniyat rivojlanishda davom etgan hamda taraqqiy topgan. Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilik, amaliy san'at va milliy madaniyat qayta tiklandi hamda zamon ruhida taraqqiy etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 591 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 48 b.
3. Kuraxmedov A. Samarqandlik hunarmandlar // Fan va turmush. – 2000. – 5-son. – 21–22-betlar.
4. Suleymanov I.K. O kadrovom potensiale remeslennikov v Uzbekistane 20-kh godov // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. – 1998. – № 6. – S. 43–44.
5. To'xtayev A.Q. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni "sotsialistik" asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlar (1917–1941-yillar): tarix fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2001.
6. Qilichev U.A. O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (1991–2006-yillar): tarix fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2010.
7. Hamidova M. O'zbekistonning kashtasi-yu zardo'zi // Fan va turmush. – 2000. – 5-son. – 39–40-betlar.
8. Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – М.; Л., 1959.
9. Развадский В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент, 1916.
10. Rassudova R. O'zbek kashtachilik san'ati. – Toshkent, 1961.
11. Рахимов М.К. Народные принципы в современной художественной керамике Узбекистана. – Ташкент, 1964.
12. Sohibqiron Amir Temur davrida hunarmandchilik // Toshkent oqshomi gazetasi. – 2004-yil, iyul.
13. Sergeev B. O'zbekistonda misgarlik. – Toshkent, 1963.
14. Faxretdinova D.A. Yuvelirnoe iskusstvo Uzbekistana. – Tashkent, 1998. – S. 64.
15. Chepeloveskaya G.I. Kashtachilik. O'zbekiston so'zanasi. – Toshkent, 1961.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.